



ELEKTRON SAVDOLAR INFRATUZILMASINING ASOSIY IMKONIYATLARI VA SAVDOLAR XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH CHORA-TADBIRLARI

Sarvinoz Radjabova ¹

¹ “ISFT” instituti Aniq fanlar kafedrasida o‘qituvchisi

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
Elektron savdo, mikroinfratuzilma, makroinfratuzilma, elektron to‘lov tizimi.	Ushbu maqolada elektron savdoni rivojlantirish istiqbollari, elektron savdolar tizimi va elektron savdolar infratuzilmasining asosiy elementlari ko‘rib chiqilgan hamda elektron savdoni rivojlantirishda elektron to‘lov tizimlarining o‘rni masalasi yoritilgan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Электронная торговля, микроинфраструктура, макроинфраструктура, электронная платёжная система.	В статье рассмотрены перспективы развития электронной торговли, основные элементы электронной торговой системы и инфраструктуры электронной торговли, освещена роль электронных платёжных систем в развитии электронной торговли.
KEY WORDS	ABSTRACT
Electronic commerce, microinfrastructure, macroinfrastructure, electronic payment system.	The article examines the prospects for the development of electronic commerce, the main elements of the electronic trading system and the infrastructure of electronic commerce, highlights the role of electronic payment systems in the development of electronic commerce.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish, tender savdolarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash bo‘yicha izchil va kompleks ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, davlat xaridlari tizimiga elektron savdolar joriy etildi, tovar-xomashyo birjasining maxsus axborot portali yaratildi, tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi bo‘yicha, jumladan, investitsiya loyihalari doirasida ko‘p pog‘onali idoralararo tender komissiyalari tashkil etildi.

Mamlakatimizda byudjet tizimi byudjetlari, jumladan, davlat byudjeti mablag‘laridan oqilona foydalanish, ular hisobiga davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun tovar va xizmatlar xaridini amalga oshirish jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va elektron savdo mexanizmlarini keng qo‘llagan holda, davlat

xaridlari samaradorligini oshirish alohida dolzarblik kasb etuvchi masalalardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Elektron savdolarini tashkil etish infratuzilmasi doirasida olib borilgan izlanishlarimiz ko‘rsatishicha, elektron savdolar deganda nafaqat an’anaviy savdolarida internet texnologiyalarini qo‘llash, balki elektron savdolar tijorat faoliyatining mutlaq yangi sohasi tushuniladi. So‘nggi yillarda texnologik taraqqiyot natijasida yangi avlod raqamli texnologiyalari jadallik bilan elektron savdolar amaliyotiga kirib kelmoqda. Ular sohada zamonaviy mexanizmlar joriy qilinishiga sabab bo‘lib, elektron savdolar infratuzilmasining muntazam takomillashib borishiga zamin yaratmoqda.

Elektron savdolarini tashkil etish infratuzilmasi doirasida olib borilgan dastlabki tadqiqotlar ko‘rsatishicha, elektron savdolar deganda, nafaqat

an’anaviy savdolarida internet texnologiyalarini qo‘llash tushuniladi, balki elektron savdolar tijorat faoliyatining mutlaq yangi sohasi sifatida talqin etiladi. So‘nggi yillarda texnologik taraqqiyot natijasida raqamli texnologiyalarning yangi avlodlari jadal sur‘atda elektron savdolar amaliyotiga kirib kelmoqda va ular sohada zamonaviy mexanizmlar joriy qilinishiga sabab bo‘lib, elektron savdolar infratuzilmasining muntazam takomillashib borishiga zamin yaratmoqda.

Natijalar. Elektron savdolar tizimining asosiy elementlarini ikki yo‘nalishga ajratib ko‘rib chiqishimiz mumkin. Birinchi yo‘nalishga elektron savdolar infratuzilmasini, ikkinchi yo‘nalishga elektron savdoni amalga oshirish tashkiliy shakllarini ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda elektron savdo tizimi asosiy elementlari soha infratuzilmasining asosini tashkil etadi. Elektron savdoni amalga oshirish tashkiliy shakllari deganda mavjud infratuzilmalar imkoniyatlaridan foydalangan holda elektron savdoni amalga oshirish shakllari tushuniladi.

Elektron savdolar infratuzilmasi an’anaviy savdolar infratuzilmasidan tarkibi va mazmuni jihatidan keskin farq qilib, elektron savdolarida biznes muhiti an’anaviy tizimga nisbatan ham qulay, ham murakkab hisoblanadi. Biznes munosabatlari va savdo operatsiyalari elektron tarzda amalga oshirilishi evaziga vaqt va moliyaviy xarajatlar tejaladi. Elektron tizimning qulayligi aynan shunda ko‘rinadi. Elektron bozorning haddan ziyod jadalligi va kengligi evaziga elektron savdolarida raqobatga bardosh berish uning murakkabligidan dalolat beradi. Shu sababli, elektron savdolaridagi raqobat muhitiga tayyor bo‘lish uchun ishtirokchilardan doimiy ravishda elektron savdo infratuzilmasini takomillashtirib borish va an’anaviy savdolarida qo‘llanmaydigan qo‘shimcha choralarni ko‘rishni talab etadi.

Elektron savdolar infratuzilmasining an’anaviy savdolar infratuzilmasidan birlamchi farqi shundaki, an’anaviy savdolar muayyan makon (joy) infratuzilmalar asosini tashkil etsa, elektron savdolarida deyarli barcha infratuzilmalar faoliyati internet tarmog‘iga asoslanadi. Elektron savdolar infratuzilmasini batafsilroq ko‘rib chiqish uchun uning tarkibi va elementlarini alohida bayon qilish maqsadga muvofiq. Elektron savdolar infratuzilmasi tarkibida maxsus dasturiy ta‘minot, ma‘lumotlar bazasi va ilovalarni boshqarish tizimi, telekommunikatsiya va aloqa, tovar va xizmatlar oldi-sotdisi xavfsizligini ta‘minlovchi elektron dasturlar, virtual bank xizmatlari, maxsus to‘lov tizimlari va boshqa infratuzilma turlari muhim o‘rin tutadi (1-rasm).

1-rasm. Elektron savdolar infratuzilmasining asosiy unsurlari

Elektron savdolar infratuzilmasining asosiy elementlari
Maxsus dasturiy ta‘minot
Ma‘lumotlar va ilovalarni boshqarish tizimlari
Telekommunikatsiya va aloqa
Oldi-sotdi hujjatlari xavfsizligini ta‘minlovchi tizim
Yuridik-huquqiy ta‘minot
Virtual bank tizimi
Maxsus to‘lov tizimlari
Avtomatlashtirilgan omborxonalar
Yetkazib berish tizimi
Moliyaviy institutlar va brokerlar
Soliq tizimi va bojxona tariflari
Marketing xizmati, veb-dizayn va reklamalar

Izoh: <https://studopedia.org/4-16024.html> – internet resurs ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Ma'lumotlarda keltirib o'tilganidek, 1-rasmda keltirilgan elektron savdolar infratuzilmasi asosiy elementlarining negizini internet tarmog'i tashkil etib, internetning qamrori va sifati singari boshqa omillar ham elektron savdolar infratuzilmasining barqaror ishlashiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazishini inobatga olish lozim. Milliy iqtisodiyotda elektron savdolarning ommalashuvi va rivojlanishi nafaqat infratuzilma elementlarining mavjudligiga, balki ularning kompleks tarzda faoliyat ko'rsatishida ham bog'liq. Ya'ni infratuzilma tarmoqlari o'zaro bir-birini to'ldirgan holda, samarali faoliyat yuritishi kerak.

Hukumatning elektron savdoni rivojlantirish borasida amalga oshiradigan asosiy vazifasi esa tegishli me'yoriy-huquqiy bazani yaratgan holda, elektron savdo operatsiyalarining qonuniyligini ta'minlash va sohani samarali tartibga solishdan iboratdir. Elektron savdolar infratuzilmasida boshqa guruh subyektlari ham borki, ular bevosita elektron savdo jarayonlarini tashkil etadi. Bularga elektron do'konlar, savdo maydonchalari, elektron auksionlar va boshqa elektron savdo platformalarini kiritish mumkin.

Elektron savdolar infratuzilmasini yanada kengroq o'rganish uchun uning unsurlarini shartli ravishda ikki darajaga ajratgan holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Bular: mikro va makro darajadagi infratuzilma unsurlari.

Mikro darajadagi infratuzilma unsurlari deganda, alohida olingan elektron savdo ishtirokchisi – tadbirkorlik subyekti imkoniyati doirasida yaratiladigan infratuzilmalar tushuniladi. Ularga maxsus dasturiy ta'minot, ma'lumotlar va ilovalarni boshqarish tizimlari, avtomatlashtirilgan omborxonalar va yetkazib berish xizmati, marketing va veb-dizayn imkoniyatlari kabilarni kiritishimiz mumkin.

Makro darajadagi infratuzilma unsurlari deganda elektron savdo ishtirokchisi imkoniyatidan tashqarida bo'lgan, mamlakat miqyosida umumiy holatda ta'minlanadigan infratuzilmalar tushuniladi. Bularga mamlakatdagi internet tarmog'i qamrovi va sifati, tashkiliy-huquqiy infratuzilma, soliq va bojxona rejimi, telekommunikatsiya va aloqa, virtual bank va boshqa moliyaviy xizmatlar, elektron to'lov tizimlari, elektron savdolar xavfsizligini ta'minlash tizimlarini kiritish mumkin. Elektron savdolar infratuzilmalarini shartli ravishda bunday ajratib olishimiz kelajakda elektron savdolar sohasini baholash, mavjud muammolarni bartaraf etish, elektron savdolarini rivojlantirishga tizimli yondashish orqali aniq va manzilli chora-tadbirlar ko'rilishiga asos bo'ladi.

Elektron savdolar infratuzilmasini rivojlantirish masalalari Yevroosiyo taraqqiyot bankining (YOTB) tahliliy relizlarida ham alohida to'xtalib o'tilgan. Xususan, elektron savdo iqtisodiy samaradorligi tufayli yirik integratsiyalashgan birlashmalarning kun tartibidagi dolzarb masalalar qatorida ekanligi qayd etiladi. Bankning e'tirofiga ko'ra, elektron savdo mamlakatlar va bizneslar o'rtasidagi chegaralarni olib tashlaydi, tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish orqali savdo hajmlari o'sishiga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki berib, tranzaksiya va operatsion xarajatlar qisqarishi aholining keng qatlami uchun tadbirkorlik faoliyati imkoniyatlarini oshiradi. Ammo maksimal samaradorlikka erishish va savdo hajmlari o'sishiga ko'maklashish uchun elektron savdolar amalga oshiriladigan mustahkam poydevor yaratish zarur. Buning eng muhim shartlaridan biri – axborot kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasidir. Shuningdek, YOTBning “rivojlangan raqamli iqtisodiyot” guruhiga kiruvchi barcha 6 ta ishtirokchi mamlakati elektron



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

savdolarga ko‘maklashish uchun o‘zlari o‘rtasida logistik infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha choralar ko‘rishni zarur deb hisoblaydi.

Muhokama va xulosa. Bugungi kunda milliy elektron savdolar bozorini rivojlantirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, qonunchilik bazasini takomillashtirish, elektron biznes tartibotlarini soddalashtirish, elektron platformalar ishlab chiqish va ilg‘or texnologiyalar joriy etishini qo‘llab-quvvatlash, elektron savdolar infratuzilmalarini rivojlantirish, internet tarmog‘ida bitimlarni amalga oshirish jarayoni xavfsizligi va ishonchligini ta‘minlash, shuningdek, kiberjinoyatchilikning oldini olish borasida tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3724-son qarori [9]ga asosan elektron tijorat ishtirokchilarining milliy reyestri ishga tushirilgaligi sohaning rivojlanishida tub burilish yasadi.

Mamlakatimizda ham elektron savdolar rivojlanishiga elektron to‘lov tizimlarining

kengayishi ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda Click, PayMe, OSON, Upay, Mbank va boshqa to‘lov tizimlari, shuningdek, tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan elektron moliyaviy xizmatlar elektron savdolar infratuzilmasi takomillashuviga xizmat qilmoqda. Elektron infratuzilmalar sohasida internetga asoslangan turli platforma va texnologiyalar faol qo‘llanmoqda.

O‘zbekiston Respublikada elektron savdolar barqaror rivojlanish pallasiga kirib bormoqda. 2021-yil yakunlariga ko‘ra, onlayn tranzaksiyalar soni 35,8 mln ga ko‘paygan bo‘lib, ularning umumiy summasi 8,9 trln so‘mga oshgan. Elektron savdolar tranzaksiyalari soni 345,3 mln ga yetgan (2018-yilga nisbatan 12,2 foizga o‘sgan). Ushbu tranzaksiyalarning umumiy hajmi 18 trln so‘mga (109,8 foizga o‘sgan) yetgan. POS-terminallari bo‘yicha tranzaksiyalar summasi 79 trln so‘mga yetgan bo‘lib, 2018-yilga nisbatan 5,7 trln so‘mga (7,7 foizga o‘sgan) ko‘p demakdir [8]. Bu esa elektron savdo hajmi oshayotganligidan dalolat bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдеева З. Р. Проблемы безопасности электронной коммерции в сети Интернет // Проблемы современной экономики, 2012. – № 1 (41). – С.172-175.
2. Аюпов Р.Х., Балтабаева Г.Р. Рынок цифровой валюты: инновации и перспективы развития. – Т.: Фан ва технология, 2018. – 172 с.
3. Балабанов И.Т. Электронная коммерция. – СПб.: Питер, 2002.
4. Джуманиязова М.Ю. Перспективы развития электронной коммерции в Узбекистане // Journal of Economy and Business, 2018. – Vol 6. – С. 63-66.
5. <https://lex.uz/docs/-3744594>

6. Еманова Н.С. Признаки электронной торговли // Вестник Омского университета. Серия «Право», 2014. – № 1 (38). – С. 48-50.
7. Рахимова Х. Электрон савдо майдонларини самарали ташкил қилиш – электрон тижоратни ривожлантириш гаровидир. Manba: https://www.norma.uz/bizning_sharhlar/el-ektron_savdo_maydonlarini_samarali_tashkil_qilish_-_el-ektron_tijoratni_rivojlantirish_garovidir
8. <https://eabr.org/press/news/dlya-razvitiya-elektronnoy-kommertsii>
9. Moliyaviy axborotlar portal <https://www.spot.uz/ru/2020/02/13/ecommerce/>